

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINING GENDER MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ
ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

**THEORETICAL ASPECTS OF IMPROVING THE GENDER CULTURE DEVELOPMENT
METHODOLOGY OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

Otaboyeva Gulxaylo Ilxomjon qizi 

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanish metodikasini takomillashtirish nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari tahsil qilingan.

Аннотация

В статье изучаются теоретико-методологические основы совершенствования методики развития гендерной культуры будущих учителей иностранного языка, педагогические механизмы и технологические основы развития. Также анализируются теоретические аспекты совершенствования методики развития гендерной культуры будущих учителей иностранного языка.

Abstract

The article examines the theoretical-methodological foundations of improving the methodology of developing the gender culture of future foreign language teachers, pedagogical mechanisms and technological foundations of development. Also, the theoretical aspects of improving the methodology of developing gender culture of future foreign language teachers are analyzed.

Kalit so'zlar: gender, gender madaniyat, metodika, hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihilash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: гендер, гендерная культура, методология, сотрудничество, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: gender, gender culture, methodology, cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Hozirgi kunda butun jahon ta'lim tizimida gender tenglik – asosiy masalalardan biriga aylanmoqda. Jahon miqyosida zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo'lajak boshlang'ich xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanish metodikasini takomillashtirish nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish nazariy-metodologik asoslari, rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari, shuningdek, xotin-qizlarning gender tengligini ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari P.Konnella, P.Burde, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, O.A.Voronina, N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniy kabi jahonning yetakchi olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lism "shaxsiyatning biror ideal obrazlariga tarixan asoslangan, ijtimoiy ongda u yoki bu darajada aniq qayd etilgan ijtimoiy etalonlari ongli oriyentirlangan yagona jismoniy va ma'nnaviy shakllanish jarayonidir. Demak, ta'lism tizimining har bir yangi bosqichi barqaror tarixan qaror topgan stereotiplarga asoslanadi, insoniyat jamiyatni rivojlanishining turli davrlari izlariga ega bo'ladi. Ta'lism jamiyatda mavjud xulq-atvor gender namunalardan oddiy nusxa olmasdan, balki ularni interiozatsiyalaydi, deb aytish mumkin.

Madaniyat va jamiyatda sodir bo'ladiqan o'zgarishlar ta'lism tizimida ham albatta aks etadi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Bunda tizim faqat tarixan qaror topgan namunalarni o'ziga "singdirib" olgani uchun madaniy innovatsiyalarning hammasi ham emas, balki yetarlicha uzoq davr mavjud bo'lganlarigina o'zlashtirilishi lozim. Ayni shu xususiyat ta'limga konservativ ruh beradi.

Biroq, gender ustanovkalari va stereotiplariga kelsak, bu fenomenlar ko'p asrlik tabiatga ega, shuning uchun ular bu muhokama qilinayotgan tizimda bиринчи navbatda hisobga olinishi lozim. Ularni inkor qilish ta'limga yuqorida ko'rsatilgan xususiyatiga ziddir.

Shunga qaramasdan, ta'lism tizimi o'z rivojlanishining har bir bosqichida genderli yondoshuvda urg'uni turlicha qo'ygan. Gender aspektlarini tarixiy-pedagogik retrospektivada to'la darajada tahlil etish uchun ta'limga shaxsni faqat o'qitish emas, balki tarbiyalash, rivojlantirish va qaror toptirish jarayoni sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Pedagogika tarixida ta'lism fuqarolik tarixida qabul qilingan davriylashtirishga muvofiq muhokama qilinadi. Shuning uchun ta'lism va tarbiya muammolarini davrlarga tayanib tahlil qilamiz.

Gender aspektlarini tarixiy-pedagogik retrospektivada tahlil qilishdan oldin ma'nosni bo'yicha yaqin ushbu ikkita tushunchani ko'rib chiqamiz: genderli ta'lism va alohida ta'lism.

XX asr 70-yillarining o'talarigacha gender atamashunosligidan amalda deyarli foydalanilmagan. Pedagogikada alohida o'qitish atamasini ishlatib kelingan. Gap shundaki, jamiyatning jins-yosh stratifikatsiyasi XIX asrning o'rtaqicha bolalarni alohida-alohida o'qitish va tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Bu esa jins rollarining qat'iy iyerarxiyasi bilan bog'liq bo'lgan, bunda erkin ustuvor mavqeni, ayol esa tobe, bog'liq mavqeni egallashi lozim bo'lgan. Tegishli stereotiplarning saqlab turilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mavjud darajasi, mehnatning ijtimoiy bo'linishi, madaniy turmush ukladlari bilan ushlab turilgan.

Ta'lism va tarbiyada genderli yondoshuv ancha kengroq ma'noga ega. O'g'il bolalar va qiz bolalarning bilish mexanizmlarini hisobga olishni nazarda tutib, u erkak va ayol individualligini ochish va rivojlantirish, jinslar orasida garmonik (uyg'un) munosabatlar yaratilishiga e'tiborni jamlaydi.

Ta'lism fazasida genderli yondoshuv bolalarda "boshqa odamda ayni boshqacha dunyoqarashli, tafakkur logikasi, hissiyorlarga ega boshqa odamni ko'rish qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslanadi". Bunday ta'lism va tarbiya alohida o'qitish tajribasini inkor etmasdan, balki pedagogik va psixologik tafakkur tarixida to'plangan hamma ijobjiy narsalardan foydalanishga intiladi.

Talqinlarining xilma-xilligiga qaramasadan, pedagogika ensiklopediyasida "gender" tushunchasi umuman o'r'in olmagan. Pedagogikada "gender" atamasining yo'qligi uni tilga olgan mavzuimiz kontekstida eksplikatsiyalanishini talab qiladi. Bizning nuqtai nazarmizcha, gender – bu erkak va ayol jinsidagi shaxslarning shaxsiyat psixologik ustanovkalari, jamiyat va davlat talablariga muvofiq ravishda xulq-atvori "xos xarakteristikalar" majmuidir. Ta'rifdagisi asosiy so'zlarni ajratgan holda, asosiy xos xarakteristikalar ayollik, erkaklik, mehribonlikdir. Shunga muvofiq ravishda pedagogikada genderli yondoshuv jinslar o'zaro munosabati madaniyati o'g'il bolalar va

ILMIY AXBOROT

qiz bolalar orasida garmonik munosabatlarni tarbiyalash, ularning identikligini anglashi, ideallar va hayotiy maqsadlarni tanlashga oriyentirlanadi.

Genderli ta'lismi va tarbiya muammolariga shaxsiyatli-ijtimoiy yondoshuvni nazarda tutadi. Bu pedagogning tarbiyalanuvchiga individuallikni har bir odamning betakror va fenomenalligini ochish va rivojlantirish yo'naltirilgan tarbiyaviy o'zaro ta'sir subyekti sifatida munosabatda bo'lishini anglatadi. Shuni qayd etish muhimki, shaxsiyatli komponent jins faktorini hisobga olinishi bilan birga genderli ta'lismi mazmunida tizim asosi bo'ladi va shu bilan u an'anaviy jinssiz ta'lindan jiddiy farq qiladi.

Agar an'anaviy ta'linda intellektni, tafakkurni jinsning psixik xususiyatlarini hisobga olmasdan, rivojlantirishga urg'u berilsa, genderli ta'lismi doirasida shaxsiyatli-ijtimoiy yondoshuv tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatli-ma'naviy sferasini rivojlantirishga yo'naltirilgan, buning belgisi esa axloqiy-ma'naviy sifatlar, hayotiy qadriyatlardir.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlardan necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdon shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o'qitish.

O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan ta'lindagi ijobiy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni, 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga halal qilmasdan oliy ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Yuqorida aytilgan fikrlarni yakunlab, shuni qayd etish joizki, odatda psixologiya, sotsiologiya, falsafada foydalaniladigan "gender" tushunchasi ilmiy tushunchadan keng foydalaniladigan tushunchaga aylandi va murakkab konstruksiya sifatida qaraladi. Umuman, onda ham, madaniyatda ham gender tizimi "erkaklik" va "ayollik" kvintessensiyalari, odam tabiatining dualizmi sifatida ifodalanadi.

Mazkur tizim, kognitiv konstrukt bo'lgani holda, jinsiy simvolizmida "in-yan" ko'rinishida o'z rivojini topadi, qadimgi mifologiyalarda barqaror erkaklik va ayollik obrazlari bilan mustahkamlanadi va hozirgi zamondagi madaniyatiga ham "ayol-xaos-stixiya" va uni erkak intizomi tartibga soladigan bo'lib singib kiradi. Erkaklik va ayollikning turli madaniyatlar mentaliteti xususiyatlariga mos simvolik xarakteristikalarini ijtimoiy institutlar amaliyotida, shu jumladan, patriarchal an'analarga asoslangan ta'lismi tizimida ham o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования Для пед. спец. высш. учеб. заведений. – Москва, "Просвещение", 1990. – 141 с.
2. Аубакирова Н. И. Что такое гендер II ОНС: Общественные науки и современность. - 1996. №6. - С. 123-125.
3. Азарова Е. А. Проблема гендерных стереотипов в моральном сознании: Автореф. дис... канд. филос. наук. СПб.: 2000 — 18с
4. Аржиловская Е. И. Женщина и образование: объективно-субъективное взаимодействие: Автореферат дис... канд. социол. наук. Тюмень, 1997. - 18с.
5. Битинас Б. П. Педагогическая диагностика: сущность, функции, перспективы // Совет, педагогика, — 1993. № 12. - С. 3.
6. Гаджиева Р. Г. Динамика гендерных стереотипов и их влияние на профессиональную самореализацию личности: Автореф. дис.... канд. психолог, наук. М., 2000. - 24 с.
7. Клецина И. С. Гендерная социализация. (Учебное пособие). СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена. 1998. - С. 7.
8. Нарбаева Т. К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореф., Т.: -2020. 8-б.
9. Шермухаммедов С. Ш. Маънавий маданият ва ижтимоий тараққиётнинг ўзаро таъсири муаммолари. Фронта. Илмий тўплам. 1999. Б. 38-46.